|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXINING BOSHQARUV TAHLILINI<br>AMALGA OSHIRISH USULLARI .....                                                             | 538 |
| Xamidova S.Ya.                                                                                                                                                          |     |
| STRATEGIES FOR INCREASING COMPETITIVENESS IN DEVELOPING EXPORT ACTIVITIES<br>IN SMALL ENTERPRISES.....                                                                  | 544 |
| Nasridinova Shokhida Taufikovna                                                                                                                                         |     |
| SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA ILMIY-NAZARIY QARASHLAR .....                                                                                                         | 551 |
| To'g'onov Ibroximxo'ja                                                                                                                                                  |     |
| XUSUSIY TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY RESURLARINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY<br>VA AMALIY ASOSLARI.....                                                                 | 555 |
| Xolmatov Dilmurod Maxmudjonovich                                                                                                                                        |     |
| PENSIYA JAMG'ARMASI DAROMADLARI SHAKLLANISHI MASALALARI.....                                                                                                            | 562 |
| Sherjonov Doniyor Saparbaevich                                                                                                                                          |     |
| EKSPORT VA VALYUTA OPERATSIYALARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI.....                                                                                                  | 566 |
| Sobirova Xilola Rustam qizi                                                                                                                                             |     |
| SURXONDARYO VILOYATIDA AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO AYLANMASI HAJMI<br>KO'RSATKICHLARINI ARIMA MODEL YORDAMIDA PROGNOZLASHTIRISH.....                                | 571 |
| Qudratova Shahnoza Shuhrat qizi                                                                                                                                         |     |
| XO'JALIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                                           | 579 |
| Valijonov Akmaljon                                                                                                                                                      |     |
| XIZMATLAR IQTISODIYOTI VA UNI RIVOJLANISHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                                                                    | 584 |
| Abduxoliqova Farangiz Abduxoliq qizi                                                                                                                                    |     |
| O'ZBEKISTONDA TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMI: HOZIRGI HOLATI, MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH<br>ISTIQBOLLARI.....                                                                | 588 |
| Kuvandikov Shuxrat Oblokulovich, Abduxalikova Komila Abduxalikovna                                                                                                      |     |
| ИНТЕГРАЦИЯ МЕТОДОВ КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ ПО ВИДАМ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (АВС) И ЦЕЛЕВОГО<br>КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ (ТС) КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ<br>УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА ..... | 595 |
| Киличева Ф.Б.                                                                                                                                                           |     |
| GAZ TARMOQLARINI MODERNIZATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI<br>BAHOLASH.....                                                                                   | 601 |
| Xamidov Xayriddin Faxritdinovich                                                                                                                                        |     |
| SOLIQ NAZORATI TIZIMI: IQTISODIY MOHIYATI, SHAKLLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH<br>YO'LLARI.....                                                                       | 606 |
| Donaboyev Dostonbek Xusan o'g'li                                                                                                                                        |     |
| УПРАВЛЕНИЕ ПРИБЫЛЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ФАКТОР РОСТА ЕГО ФИНАНСОВОЙ<br>ЭФФЕКТИВНОСТИ .....                                                                                  | 610 |
| Агзамов Авазхон Талгатович, Алиева Сусанна Сейрановна                                                                                                                   |     |
| NOBANK KREDIT TASHKIOTLARINING AKTIV OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING<br>DOLZARB MASALALARI .....                                                                    | 618 |
| Sardor Karimov Boydulla o'g'li                                                                                                                                          |     |
| INVESTITSION JOZIBADORLIKNING IQTISODIY MOHIYATI VA INVESTITSIYA NAZARIYALARI<br>INTEGRATSIYASI .....                                                                   | 624 |
| Abdullayeva Nilufar Ruslanovna                                                                                                                                          |     |
| QURILISH KORXONALARINI KORPORATIV QIMMATLI QOG'OZLAR ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING<br>ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....                           | 630 |
| Igitov Jurabek Kuzibekovich                                                                                                                                             |     |
| OPEN BANKING AS A DRIVER OF FINANCIAL INNOVATION AND INCLUSION IN UZBEKISTAN'S<br>BANKING SECTOR.....                                                                   | 637 |
| Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Asadbek Ergashov                                                                                                                           |     |
| TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI BOSHQARISH VOSITALARI .....                                                                                              | 642 |
| Sadikov Q.M.                                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                     |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| BOSHQARUV HISOBIDA NARX SHAKLLANISHINING NAZARIY JIHATLARI (TOVAR BOZORIDA USTUN MAVQEGA EGA XO'JALIK SUBYEKTLARI MISOLIDA).....                    | 646 |
| Xaitmetov Elmurat Sidikmatovich                                                                                                                     |     |
| ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ЭНЕРГОЁМКОСТИ ВВП НА ОСНОВЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ .....                                                                        | 652 |
| Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.                                                                                                                       |     |
| XALQARO LOYIHALARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI INTEGRATSIYA YETUKLIGI MODEL VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....                               | 659 |
| Ne'matova Bonura Umid qizi                                                                                                                          |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDITNING MOHIYATI, MAQSADI VA ASOSIY VAZIFALARI .....                              | 664 |
| Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich                                                                                                                   |     |
| OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....                                          | 674 |
| Xusanova Gavhar                                                                                                                                     |     |
| MAHALLIY SHAROITDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI KO'P MEZONLI BAHOLASHNING IQTISODIY YO'NALTIRILGAN GIBRID MODEL VA UNING AMALIY QO'LLANILISHI..... | 679 |
| Mirzayeva Shaxnoza Mamat qizi                                                                                                                       |     |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYALARINING HOLATI VA O'RNATILGAN QUVVATLARINI TAHLIL QILISH .....                                | 683 |
| Maxamadiyev Farrux Mirazimovich, Baratov Laziz Suyun o'g'li                                                                                         |     |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA BUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNING NAZORATINI TASHKIL QILISH.....                                                             | 688 |
| Dadaboyev Tulqinjon Yusupjonovich, Dadaboyev Abdurahmon Ne'matjon o'g'li                                                                            |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI .....                                                   | 693 |
| Yusubov Inomjon Ikrom o'g'li                                                                                                                        |     |
| MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK VA AMALIY JIHATLARI .....                                                                   | 699 |
| Narzulloyev Behruz Baxtiyor o'g'li                                                                                                                  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARI AMALIYOTI TAHLILI .....                                                                      | 702 |
| Kazakbayev S.B.                                                                                                                                     |     |
| BOG'DORCHILIK TARMOG'NI RIVOJLANTIRISHDA SUV TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....               | 705 |
| Sattorov Orifjon Boymurodovich                                                                                                                      |     |
| MHXS ASOSIDA SUG'URTA KOMPANIYALARINING BUGALTERIYA HISOB VA MOLIYAVIY TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....                              | 709 |
| Alimov Baxodir Batirovich                                                                                                                           |     |
| QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLATNING IMTIYOZLI MOLIYALASHTIRISH MYEXANIZMLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....          | 718 |
| Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich                                                                                                                   |     |
| MAHALLA TIZIMIDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....                               | 724 |
| Berkinov Bozorboy Berkinovich                                                                                                                       |     |
| XALQARO TURIZM BOZORIDA MICE TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH JARAYONLARINING NAZARIY ASOSLARI .....                                         | 728 |
| Fayyoza Xalimova Nafasovna                                                                                                                          |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARGA YO'NALTIRILGAN BIZNES JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH AMALIYOTI.....                                 | 733 |
| A.M. Azimov                                                                                                                                         |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI .....                                                  | 737 |
| Xalimbetov Farxad Bagibekovich                                                                                                                      |     |



# RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANDLIKNI LEGALLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

**Xalimbetov Farxad Bagibekovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar kafedrası katta o'qituvchisi  
Email: fxalimbetov@tsue.u

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni legallashtirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda norasmiy bandlikni qisqartirish hamda mehnat resurslarini rasmiy iqtisodiyotga jalb etishda raqamli texnologiyalar, platformaviy yechimlar va ma'lumotlar integratsiyasining o'ri asoslab berilgan. Xususan, obodonlashtirish davlat korxonasi faoliyati misolida texnologiyalarni integratsiya qilish, ish jarayonlarini optimallashtirish, katta ma'lumotlar tahlili asosida aholi ehtiyojlarini aniqlash va xizmat turlarini diversifikatsiya qilish orqali rasmiy bandlikni kengaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, mahallalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, raqamli buyurtma platformalarini joriy etish, soddalashtirilgan mehnat munosabatlari va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish orqali norasmiy ishlovchilarni legallashtirish modeli taklif etilgan. Tadqiqot natijalari obodonlashtirish xizmatlari ko'rsatish tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish, xizmat sifati va shaffofligini ta'minlash, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, aholi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni rasmiylashtirishning kompleks institutsional modelini shakllantirishga nazariy va amaliy asos yaratadi.

**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya, rasmiy bandlik, legallashtirish, institutsional mexanizm, diversifikatsiya, modernizatsiya.

**Abstract.** This article analyzes the issues of improving institutional mechanisms for employment legalization in the context of digital transformation. The study substantiates the role of digital technologies, platform-based solutions, and data integration in reducing informal employment and integrating labor resources into the formal economy. In particular, using the example of a state landscaping enterprise, the paper examines opportunities to expand formal employment through technology integration, workflow optimization, identification of population needs based on big data analytics, and diversification of service types.

Furthermore, a model for legalizing informal workers is proposed through strengthening cooperation with mahalla institutions, introducing digital order platforms, simplifying labor relations, and improving social protection mechanisms. The research findings contribute to enhancing management efficiency in the provision of landscaping services, ensuring service quality and transparency, strengthening socio-economic stability, and expanding public participation.

This approach provides both theoretical and practical foundations for developing a comprehensive institutional model for employment formalization in the context of digital transformation.

**Key words:** digital transformation, formal employment, legalization, institutional mechanism, diversification, modernization.

**Аннотация.** В данной статье анализируются вопросы совершенствования институциональных механизмов легализации занятости в условиях цифровой трансформации. В исследовании обоснована роль цифровых технологий, платформенных решений и интеграции данных в сокращении неформальной занятости и вовлечении трудовых ресурсов в формальную экономику. В частности, на примере деятельности государственной организации по благоустройству рассмотрены возможности расширения официальной занятости за счёт интеграции технологий, оптимизации рабочих процессов, выявления потребностей населения на основе анализа больших данных и диверсификации видов услуг.



Также предложена модель легализации неформально занятых работников посредством усиления сотрудничества с махаллинскими институтами, внедрения цифровых платформ заказов, упрощения трудовых отношений и совершенствования механизмов социальной защиты. Результаты исследования направлены на повышение эффективности управления системой оказания услуг по благоустройству, обеспечение качества и прозрачности услуг, укрепление социально-экономической стабильности, а также расширение участия населения.

Предложенный подход формирует теоретическую и практическую основу для создания комплексной институциональной модели формализации занятости в условиях цифровой трансформации.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, формальная занятость, легализация, институциональный механизм, диверсификация, модернизация.

## KIRISH

Aholi bandligi to'g'risidagi (Senat tomonidan 2020-yilning 7-avgustida ma'qullangan) Qonunda (4-modda) xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) bo'yicha shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishga asoslangan faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar<sup>1</sup> uchun raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni rasmiylashtirishning kompleks institutsional modelini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Raqamli transformatsiya jarayonlari mamlakatimiz iqtisodiyotida tub tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi mehnat bozori institutlari, bandlik shakllari va mehnat munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada platformaviy bandlik, masofaviy mehnat, o'zini o'zi band qilish kabi yangi ish shakllari paydo bo'lib, an'anaviy mehnat munosabatlarining transformatsiyalashuviga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham norasmiy bandlik (38% gacha kamaydi) darajasining yuqoriligi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Norasmiy bandlik davlat budjeti daromadlarining kamayishiga, ijtimoiy himoya tizimining qamrov darajasi pasayishiga hamda mehnat huquqlarining yetarli darajada ta'minlanmasligiga sabab bo'ladi. Shu jihatdan yangi yondashuvlar asosida aholi bandligini ta'minlash, bandlikni legallashtirish masalasi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi zamonda amalga oshayotgan raqamli transformatsiya jarayoni bu jamiyat, iqtisodiyot va davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali tizimlarni tubdan o'zgartirish jarayonidir. Bu oddiy "raqamlashtirish" emas, balki ish uslubi, boshqaruv va xizmat ko'rsatish modelining yangilanishidir. Raqamli transformatsiya jarayonlari ushbu muammoni hal etishda yangi institutsional imkoniyatlarni yaratadi.

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni legallashtirishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, obodonlashtirish davlat korxonasi faoliyati misolida texnologiyalarni integratsiya qilish, ish jarayonlarini optimallashtirish, mahallalar bilan hamkorlikni kengaytirish hamda raqamli platformalar orqali xizmat ko'rsatish tizimini joriy etish orqali rasmiy bandlikni kengaytirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya va bandlikni legallashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masalani tahlil qilishda, avvalo, texnologik o'zgarishlarning mehnat bozoriga ta'siri haqidagi fundamental tadqiqotlarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee 2014-yilda chop etilgan "The Second Machine Age" asarida raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha sohalarida unumdorlikni oshirish bilan birga, mehnat tuzilmasini tubdan o'zgartirishini asoslab beradi. Mualliflar avtomatlashtirish va algoritmlash jarayonlari past malakali ish o'rinlarini qisqartirishi mumkinligini, biroq yuqori malaka va kreativ ko'nikmalar talab qiladigan yangi ish o'rinlari paydo bo'lishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv raqamli transformatsiya sharoitida mehnat resurslarini qayta tayyorlash va institutsional moslashuv zaruratini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Daron Acemoglu va Pascual Restrepo 2018-yilda chop etilgan tadqiqotlarida robotlashtirishning AQSh mehnat bozoriga ta'sirini empirik tahlil qilgan. Ular avtomatlashtirish ayrim hududlarda ish haqi pasayishi va bandlik qisqarishiga olib kelganini ko'rsatadi, biroq uzoq muddatda texnologik innovatsiyalar yangi faoliyat turlarini shakllantirish orqali kompensatsiya mexanizmini ishga tushirishini qayd etadi. Ushbu tadqiqot raqamli transformatsiya jarayonida davlat siyosatining ahamiyatini, xususan, qayta tayyorlash dasturlari va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot va platformaviy bandlik muammolari bo'yicha Guy Standingning 2011-yilda nashr etilgan "The Precariat: The New Dangerous Class" asari alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif zamonaviy mehnat



bozorida barqaror ijtimoiy kafolatlardan mahrum bo'lgan yangi ijtimoiy qatlam – “prekariat” shakllanayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qisqa muddatli kontraktlar, norasmiy va platformaviy ish shakllari ijtimoiy himoya tizimlarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Bu yondashuv bandlikni legallashtirishning institutsional mexanizmlarini ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Platforma iqtisodiyoti va gig-bandlik bo'yicha Juliet Schor 2020-yilda chop etilgan tadqiqotlarida raqamli platformalarning mehnat munosabatlariga ta'sirini tahlil qilgan. U platformalar ish beruvchi va ijrochi o'rtasidagi klassik mehnat munosabatlarini o'zgartirayotganini, biroq ko'pincha ijtimoiy sug'urta va mehnat huquqlaridan chetlab o'tish imkonini ham yaratishini ko'rsatadi. Shu bois u davlat tomonidan platformaviy ishni tartibga solish va minimal ijtimoiy standartlarni joriy etish zarurligini asoslaydi.

Norasmiy iqtisodiyot va bandlikni legallashtirish masalalari Hernando de Soto tomonidan 2000-yilda chop etilgan “The Mystery of Capital” asarida chuqur tahlil qilingan. Muallif rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy faollikning katta qismi norasmiy sektorda ekanini, asosiy muammo murakkab byurokratik jarayonlar va huquqiy tizimning samarasizligida ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, mulk huquqi va rasmiy ro'yxatdan o'tish jarayonlarini soddalashtirish orqali norasmiy iqtisodiyotni legallashtirish mumkin. Ushbu yondashuv raqamli “bir darcha” tizimlari orqali bandlikni rasmiylashtirish konsepsiyasiga bevosita metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat bozorida institutsional yondashuvning nazariy asoslari Douglass North tomonidan ishlab chiqilgan. U 1990-yilda chop etilgan “Institutions, Institutional Change and Economic Performance” asarida institutlarni iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida ko'rsatadi. Northning fikricha, samarali institutlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Raqamli transformatsiya sharoitida elektron shartnomalar, raqamli identifikatsiya va integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasi kabi mexanizmlar aynan tranzaksiya xarajatlarini qisqartirish orqali norasmiy bandlikni legallashtirishga xizmat qiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 2018-yilda e'lon qilingan “Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture” hisobotida dunyo bo'yicha band aholining katta qismi norasmiy sektorda faoliyat yuritayotgani qayd etiladi. Hisobotda raqamlashtirish jarayoni to'g'ri yo'naltirilsa, norasmiy bandlikni qisqartirish va ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish mumkinligi ta'kidlanadi. Bu manba empirik dalillar asosida bandlikni legallashtirish siyosatining dolzarbligini ko'rsatadi.

Raqamli davlat boshqaruvi va elektron hukumat tizimlari bo'yicha Janowski Tomasz 2015-yilda chop etilgan tadqiqotida raqamli platformalar orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi oshishini asoslab beradi. U elektron hukumat tizimlari shaffoflikni kuchaytirishi, korrupsiyani kamaytirishi va rasmiy sektorni kengaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu yondashuv bandlikni elektron rasmiylashtirish platformalarini yaratishda nazariy asos sifatida ahamiyatlidir.

Shuningdek, Dani Rodrik 2018-yilda chop etilgan tadqiqotlarida globalizatsiya va texnologik o'zgarishlar fonida mehnat bozorining fragmentatsiyalashuvi kuchayayotganini ta'kidlaydi. U inklyuziv iqtisodiy siyosatni shakllantirishda davlatning faol rolini asoslaydi. Rodrikning yondashuvi raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni legallashtirishni ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanish bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy manbalar raqamli transformatsiya mehnat bozorida tuzilmaviy o'zgarishlarni keltirib chiqarishini, platformaviy va moslashuvchan bandlik shakllari kengayishini hamda norasmiy iqtisodiyot muammosini yangi bosqichga olib chiqishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, institutlarni modernizatsiya qilish, rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish va ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish orqali bandlikni legallashtirish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslangan. Bu nazariy va empirik yondashuvlar raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni legallashtirishning institutsional mexanizmlarini ishlab chiqish uchun mustahkam metodologik poydevor yaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni legallashtirishning samarali institutsional mexanizmlarini aniqlash va amaliy modelini ishlab chiqishdan iborat.

Natijada taklif etilayotgan yondashuv bandlikni rasmiylashtirish jarayonini tizimli ravishda tashkil etish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda aholi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti sifatida raqamli transformatsiya sharoitida mehnat bozori tizimida yuzaga kelayotgan institutsional o'zgarishlar, xususan, norasmiy bandlikni qisqartirish va yollanma mehnatni rasmiylashtirish jarayonlari hamda ushbu jarayonlarda obodonlashtirish davlat korxonasining roli va funksional imkoniyatlari qaraladi. Shuningdek, obodonlashtirish davlat korxonasi faoliyati doirasida mardikorlar va boshqa vaqtinchalik yollanib ishlovchilarni rasmiy bandlikka jalb etish, ularni yagona raqamli platforma orqali ro'yxatga olish, buyurtmalarni taqsimlash, mehnat munosabatlarini shaffoflashtirish hamda ijtimoiy himoya tizimiga integratsiya qilish jarayonlari tadqiqot obyekti tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli transformatsiya insoniyat taraqqiyotining navbatdagi sifat bosqichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har bir texnologik inqilob mehnat bozorida tuzilmaviy siljishlarni yuzaga keltirgan: ayrim kasblar qisqargan, yangi mutaxassisliklar paydo bo'lgan, mehnat unumdorligi oshgan va iqtisodiy o'sishning yangi manbalari shakllangan. Bugungi raqamli transformatsiya ham mazkur qonuniyatdan mustasno emas. Sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (big data), platformaviy iqtisodiyot va avtomatlashtirish jarayonlari mehnat mazmunini o'zgartirmoqda. Biroq asosiy masala texnologiyalarning o'zi emas, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimiga qanday integratsiyalashayotganidadir. Ayniqsa, bandlikni legallashtirish nuqtayi nazaridan raqamli transformatsiya yangi imkoniyatlar bilan birga yangi chaqiriqlarni ham yuzaga chiqarmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi natijasida bandlik shakllari sezilarli darajada diversifikatsiyalashdi. Masofaviy ish, frilanserlik, platformaviy bandlik, qisqa muddatli kontraktlar, gig-iqtisodiyot kabi yangi mehnat shakllari kengaydi. Bu jarayon mehnat bozori ishtirokchilariga vaqt va makon jihatidan moslashuvchanlik, xarajatlarni optimallashtirish hamda o'z salohiyatini global miqyosda namoyon qilish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, bunday erkinlik mehnat munosabatlarining an'anaviy institutsional asoslarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki mavjud huquqiy normalar ko'pincha doimiy ish joyiga ega bo'lgan, an'anaviy mehnat shartnomasi asosida ishlovchi xodimlarga mo'ljallangan.

Bandlikning yangi shakllari rasmiy va norasmiy mehnat o'rtasidagi chegaralarni xiralashtirmoqda. Platformaviy ish bilan band bo'lgan shaxslar ko'pincha mustaqil ijrochi sifatida ro'yxatdan o'tmaydi, soliqlarni to'liq to'lamaydi yoki ijtimoiy sug'urta tizimidan tashqarida qoladi. Natijada norasmiy iqtisodiyot kengayadi, davlat budjetiga tushumlar kamayadi, ijtimoiy himoya mexanizmlari zaiflashadi. Shu bois raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni legallashtirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Bu yerda asosiy vazifa – innovatsion mehnat shakllarini cheklash emas, balki ularni zamonaviy, soddalashtirilgan va rag'batlantiruvchi institutsional mexanizmlar orqali rasmiy sektor doirasiga jalb etishdan iborat.

Raqamlashtirish ish beruvchilar uchun shartnoma tuzish, hisob-kitob yuritish va xodimlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini ancha yengillashtiradi. Elektron mehnat shartnomalari, onlayn ro'yxatga olish tizimlari, soliq hisobotlarining avtomatlashtirilishi, yagona raqamli identifikatsiya tizimlari rasmiylashtirish xarajatlarini kamaytiradi. Bu esa norasmiy bandlikni legallashtirish uchun iqtisodiy rag'bat yaratadi. Chunki ko'plab kichik tadbirkorlar va jismoniy shaxslar aynan murakkab byurokratik jarayonlar tufayli norasmiy faoliyat yuritishga majbur bo'ladi. Raqamli platformalar orqali "bir darcha" tamoyili asosida ro'yxatdan o'tish imkoniyati yaratilsa, legallashtirish darajasi sezilarli oshishi mumkin.

Biroq raqamli rasmiylashtirish faqat texnik vosita emas, balki institutsional transformatsiyani ham talab qiladi. Mehnat, soliq va ijtimoiy himoya tizimlari o'zaro integratsiyalashgan axborot almashinuvi asosida ishlashi lozim. Yagona ma'lumotlar bazasi orqali fuqaroning mehnat faoliyati, to'langan soliqlari va ijtimoiy badallari monitoring qilinishi, shu asosda pensiya va boshqa ijtimoiy kafolatlar shakllanishi zarur. Bu nafaqat shaffoflikni ta'minlaydi, balki fuqarolarning rasmiy ishlashga bo'lgan ishonchini ham oshiradi. Agar shaxs o'z to'lovlari evaziga real ijtimoiy himoya olishini his qilsa, u norasmiy sektorda qolishga intilmaydi.

Norasmiy iqtisodiyotning yuqori ulushi mavjud sharoitda bandlikni legallashtirish bo'yicha integratsiyalashgan yondashuv zarur. Bunday yondashuv faqat nazorat choralarga emas, balki rag'batlantirish mexanizmlariga ham tayanishi kerak. Masalan, soddalashtirilgan soliq rejimlari, minimal ijtimoiy badallar, vaqtinchalik imtiyozlar, davlat buyurtmalarida rasmiy ro'yxatdan o'tgan shaxslarga ustuvorlik berish kabi choralar samarali bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli savodxonlikni oshirish, elektron xizmatlardan foydalanishni o'rgatish ham muhim omildir. Chunki ko'plab norasmiy ishlovchilar raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatiga ega emas yoki ularni qo'llash ko'nikmasiga ega emas.

Raqamli transformatsiya sharoitida mardikorlar va boshqa yollanma norasmiy ishlovchilarni markazlashgan tartibda rasmiylashtirish uchun institutsional model ishlab chiqish dolzarbdir. Bunda obodonlashtirish davlat korxonasi negizida ishonchli va shaffof bandlik platformasini yaratish taklifi alohida ahamiyatga ega. Mazkur platforma orqali vaqtinchalik ish izlovchilar va ish beruvchilar o'zaro bog'lanadi, elektron shartnoma tuziladi, bajarilgan ish hajmi qayd etiladi hamda avtomatik ravishda soliq va ijtimoiy badallar hisoblanadi. Bu mexanizm bir tomondan norasmiy mehnatni qisqartirsa, ikkinchi tomondan mardikorning ijtimoiy himoyasini kuchaytiradi.

Mahalla institutlari bilan davlat korxonasi o'rtasidagi hamkorlik integratsiyalashgan modelning muhim elementi bo'lishi mumkin. Mahalla darajasida mehnat resurslari to'g'risidagi ma'lumotlar, ishsizlar ro'yxati va ularning malaka darajasi aniqlanadi. Ushbu ma'lumotlar markaziy platformaga uzatiladi va ish beruvchilar bilan tezkor moslashtirish amalga oshiriladi. Bunday model ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi, norasmiy kelishuvlarni kamaytiradi hamda mahalla institutining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, bandlikni legallashtirishda ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash muhimdir. Raqamli tizimlar orqali katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlar yig'iladi. Agar ularning himoyasi yetarli



darajada ta'minlanmasa, fuqarolarning tizimga bo'lgan ishonchi pasayadi. Demak, institutsional mexanizmlar ishlab chiqishda kiberxavfsizlik, ma'lumotlarni shifrlash va axborotdan foydalanish qoidalarini aniq belgilash zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, obodonlashtirish davlat korxonasi qo'shimcha yo'nalishlar orqali norasmiy ishlovchilarni rasmiy bandlikka jalb qilish va raqamli platformalar orqali buyurtma olish tizimini yaratish bo'yicha quyidagi yo'llarni ko'rib chiqishi mumkin:

1. Norasmiy ishlovchilarni jalb qilish uchun aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish:
  - obodonlashtirish davlat korxonasi o'z faoliyati, ish sharoitlari, rasmiy bandlikning afzalliklari (ijtimoiy himoya, pensiya ta'minoti, tibbiy sug'urta va boshqalar) haqida aholi o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borishi kerak;
  - ish bilan ta'minlash markazlari bilan hamkorlik qilish, ya'ni obodonlashtirish davlat korxonasi ish bilan ta'minlash markazlari bilan hamkorlik qilib, ularning ro'yxatida turgan ishsizlarni ishga taklif qilishi mumkin;
  - soddalashtirilgan ishga qabul qilish tartibi, bunda obodonlashtirish davlat korxonasi ishga qabul qilish tartibini soddalashtirishi, ortiqcha hujjatlarni talab qilmasligi va tezkorlikni ta'minlashi kerak;
  - moslashuvchan ish grafiklarini ishlab chiqish, bunda obodonlashtirish davlat korxonasi ishlovchilarga moslashuvchan ish grafiklarini taklif qilishi, ularning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olishi kerak.
2. Raqamli platforma orqali buyurtma olish tizimini yaratish:
  - mobil ilova yoki veb-sayt yaratish, bunda obodonlashtirish davlat korxonasi mobil ilova yoki veb-sayt yaratishi, unda xizmat turlari, narxlari, bajarilish muddati va boshqa ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak;
  - to'lov tizimini integratsiya qilish, bunda aholi mobil ilova yoki veb-sayt orqali xizmatlari uchun onlayn to'lov qilishi mumkin;
  - buyurtmalarni taqsimlash tizimini yaratish, bunda obodonlashtirish davlat korxonasi buyurtmalarni ishlovchilar o'rtasida taqsimlash tizimini yaratishi, ularning malakasi, tajribasi va joylashuvini inobatga olishi kerak;
  - mijozlar bilan aloqa tizimini yaratish, bunda obodonlashtirish davlat korxonasi mijozlar bilan aloqa tizimini yaratishi, ularning fikrlarini inobatga olishi va shikoyatlarini hal qilishi kerak.
3. Rasmiy bandlikni ta'minlash:
  - ishlovchilar bilan mehnat shartnomasini tuzish, bunda obodonlashtirish davlat korxonasi ishlovchilar bilan mehnat shartnomasini tuzishi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilab qo'yishi kerak;
  - soliq to'lovlarini to'lash masalasida obodonlashtirish davlat korxonasi ishlovchilarning ish haqi uchun soliq to'lovlarini to'lashni ta'minlashi;
  - ishlovchilarni ijtimoiy himoya bilan ta'minlashi, ularga pensiya ta'minoti, tibbiy sug'urta va boshqa imtiyozlarni berishi kerak.
4. Raqamli platformani targ'ib qilish:
  - korxona o'zining raqamli platformasini ijtimoiy media orqali reklama qilishi, aholini xabardor qilishi kerak;
  - boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatishi, xizmatlarini taklif qilishi mumkin.

Obodonlashtirish davlat korxonasining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida qo'shimcha boshqa xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini tashkil etish va sifatini oshirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligida aholi ishtirokini yanada kengaytirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari darslik Toshkent - 2020.
2. Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich. "Servis iqtisodiyotida ish bilan bandlik shakllari transformatsiyasini tadbiq qilishga metodologik yondashuv" Muhandislik va iqtisodiyot 2025.11. №11.
3. Acemoglu D., Restrepo P. Robots and Jobs: Evidence from US Labor Markets. – 2018.
4. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.
5. de Soto H. The Mystery of Capital. – New York: Basic Books, 2000.
6. Janowski T. Digital Government Evolution: From Transformation to Contextualization. Government Information Quarterly. – 2015.
7. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
8. Rodrik D. Populism and the Economics of Globalization. Journal of International Business Policy. – 2018.
9. Schor J. After the Gig: How the Sharing Economy Got Hijacked and How to Win It Back. – University of California Press, 2020.
10. Standing G. The Precariat: The New Dangerous Class. – London: Bloomsbury Academic, 2011.
11. International Labour Organization. Women and Men in the Informal Economy: A Statistical Picture. – Geneva, 2018.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 2

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>